

TAFU 4-bosqich talabasi **Xidirova Dinara Otabek qizi**

Ilmiy raxbar : TAFU Psixologiyasi Kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Mavlyanova Surayo**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oila qurishda umr yo’ldoshi tanlash hamda jamiyatda muhim o‘rin tutishi va psixologik mosligi , muloqot madaniyati hamda ma’suliyat va sadoqatning ahamiyati ularning farzand tarbiyasiga ta’siri haqida keltirilgan .

**Kalit so‘zlar :**Psixologik moslik , muloqot , madaniyat, jamiyat, ma’suliyat , tarbiya , qadriyat , dunyoqarash , ongli tanlov , barqarorlik , xarakter, bevosita ta’sir .

**Аннотация :** В данной статье рассматривается важность выбора спутника жизни при создании семьи и его влияние на воспитание детей, включая психологическую совместимость, культуру общения, а также важность ответственности и верности.

**Ключевые слова:** Психологическая совместимость, общение, культура, общество, ответственность, воспитание, ценности, мировоззрение, осознанный выбор, стабильность, характер, прямое влияние.

**Abstract:** This article discusses the importance of choosing a life partner in family formation and its role in society, as well as the impact of psychological compatibility, communication culture, and the importance of responsibility and loyalty on raising children.

**Keywords:** Psychological compatibility, communication, culture, society, responsibility, upbringing, values, worldview, conscious choice, stability, character, direct influence.

## **KIRISH**

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi .Oila qurishda umr yo’ldoshi tanlash esa inson hayotidagi eng ma’suliyatli va taqdiriy qarorlardan biridir .Chunki bu tanlov nafaqat ikki insonning shaxsiy baxti , balki kelajak avlod tarbiyasi , jamiyat muhitiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi .

Ko‘pincha hozirgi yoshlar umr yo’ldoshi tanlashda tashqi ko‘rinish, moddiy holat yoki hissiy yaqinlikka ko‘proq e’tibor qaratib kelmoqdalar .Ammo oila mustahkamligi unit inchofarovon bo‘lishida bular yetarli emas umuman ahamiyati yo‘q desak ham mubolag’a bo‘lmaydi . Umr yo’ldoshi tanlashda shaxsning xarakteri, dunyoqarashi , hayotiy maqsadlari , ma’suliyat hissi muammolarga munosabati ham muhim o‘rin tutadi . Bugungi kunda umr yo’ldoshi tanlash ma’suliyatli bir qaror hisoblanadi chunki, inson o‘ziga oddiy bir buyum emas bir umrlik yondosh umr yo’ldosh tanlashi kerak bu haqida qilgan qarori nafaqat o‘zi uchun oila uchun ham muhim o‘rin tutadi shuning uchun ham umr yo’ldosh tanlash nozik va ahamiyatlidir . Shuningdek , qadriyatlar va dunyoqarash ham uyg‘un

bo'lishi kerak . Er-xotin o'rtasidagi qadriyatlar uyg'unligi oilaviy totuvlikning asosiy shartlaridan biridir . Hayotga , mehnatga , farzand tarbiyasiga , qarindoshlarga munosabat masalalarida o'xshash qarashlarga ega bo'lish kelajakdagi kelishmovchilik turli nizolarning oldini oladi . Aksincha , bu boradagi Keskin farqlar oilada doimiy nizolarga sabab bo'lishi mumkin .

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

„Umr yo'ldoshi tanlash “masalasi psixologiya , pedagogika , sotsiologiya va oilashunoslik fanlarida muhim ilmiy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda . Mazkur maqolam mavzusi aynan shaxsning psixologik yetukligi , ijtimoiy moslashuvi hamda oilaviy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq . Adabiyotlar tahlilini qiladigan bo'lsak , xorijiy olimlar umr yo'ldoshi tanlash jarayonini asosan psixologik moslik va shaxslararo munosabatlar nuqtayi nazaridan tadqiq etganlar .

E.Erikson shaxs rivojlanishining „yaqinlikka erishish-yolg'izlik “ bosqichida to'g'ri umr yo'ldoshi tanlash shaxsning emotsional barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi .

R.Sternbergning „uch komponentli muhabbat nazariyasi “(yaqinlik, ehtiros va ma'suliyat ) umr yo'ldoshi tanlashda psixologik asos sifatida qaraladi .

J.Bowlby va M.Ainsworthning bog'lanish (attachment)nazariyasi turmush o'rtoq tanlashda bolalik davridagi bog'lanish tajribasi muhim omil ekanini isbotlaydi .

A.G.Xarikov , A.Ya.Varga oilaviy moslik ,rollar taqsimoti va nikoh barqarorligi masalalarini yoritgan .

E.G.Eydemiller va V.V.Yustitskiy oilaviy munosabatlarda shaxsiy xarakter va tarbiya uslublarining ahamiyatini asoslab bergan .

O'zbek olimlari umr yo'ldoshi tanlashda qadriyatlar ,milliy urf -odatlar va ma'naviy omillarning o'rni ahamiyatiga alohida urg'u berishgan .

I. Karimov asarlarida mustahkam oila jamiyat barqarorligining asosi sifatida e'tirof etilgan.

R. Mavlonova, N. Jo'rayev, Sh. Mirziyoyev nutq va asarlarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ongli umr yo'ldoshi tanlash masalalari ijtimoiy muhim vazifa sifatida ko'rsatiladi.

Pedagog-psixolog olimlar tomonidan yoshlar orasida nikohga psixologik tayyorgarlik masalalari keng o'rganilgan.

Yoshlar orasida umr yo'ldoshi tanlash mezonlari, psixologik , ijtimoiy va ma'naviy omillarini aniqlash hamda ularning oilaviy barqarorlikka ta'sirini o'rganish ham juda muhim hisoblanadi .

## TAHLIL VA NATIJALAR

Umr yo'ldoshi tanlash inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy-psixologik qarorlardan biri bo'lib, u nafaqat shaxsiy baxt, balki oilaning mustahkamligi va jamiyat barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur jarayon shaxsning psixologik yetukligi, ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va madaniy muhit bilan uzviy bog'liq . Psixologik nuqtayi nazardan umr yo'ldoshi tanlashda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- Shaxsiy moslik – xarakter, temperament va emotsional barqarorlikning uyg'unligi;

• Qadriyatlar mosligi – hayotiy maqsadlar, e’tiqod va axloqiy qarashlarning o‘xshashligi;

- Muloqot madaniyati – muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilish qobiliyati;
- Mas’uliyat va yetuklik – oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faqat tashqi omillarga asoslangan tanlov (moddiy ahvol, tashqi ko‘rinish) uzoq muddatli nikoh barqarorligini ta’minlamaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, yoshlarni umr yo‘ldoshi tanlashga tayyorlash:

- oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlik,
- mas’uliyatni anglash,
- oilaviy rollarni tushunish orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalarida oilaviy tarbiya va psixologik savodxonlikka oid mashg‘ulotlarning yetarli emasligi noto‘g‘ri tanlovlar va ajrimlar xavfini oshirishi mumkin.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

• 72% respondentlar uchun o‘zaro hurmat va tushunish eng muhim mezon sifatida qayd etildi;

- 65% yoshlar psixologik moslikni asosiy omil deb biladi;

• 48% respondentlar moddiy ta’minlanganlikni muhim, ammo ikkilamchi omil sifatida baholadi;

- 55% yoshlar ota-ona roziligini zarur deb hisoblaydi.

Bu natijalar yoshlar ongida ma’naviy va psixologik omillar moddiy omillardan ustun ekanini ko‘rsatadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki , umr yo‘ldoshi tanlashda:

- psixologik moslik,
- qadriyatlar uyg‘unligi,
- muloqot madaniyati asosiy omillar hisoblanadi.

Faqat tashqi va moddiy omillarga tayanish nikoh barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqolamda umr yo‘ldoshi tanlash masalasi psixologik, pedagogik jihatdan chuqur tahlil qilindi . Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki , umr yo‘ldoshi tanlash inson hayotidagi eng ma’suliyatli qarorlardan biri bo‘lib , uning oqibatlarini shaxsiy baxt, oilaning mustahkamligi jamiyatda o‘z o‘rnini topishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi . Faqat tashqi ko‘rinish joziba orqali va moddiy manfaatlar asosidagi tanlovlar uzoq muddatli nikohga ta’minlanmaydi hamda oilaviy nizolarning kuchayib ketishiga olib keladi chunki, ikki inson o‘z manfaatlarini ko‘zlab oila quradigan bo‘lishsa bu oilaning mustahkamligiga zarar yetkazadi . huningdek, maqolada milliy qadriyatlar va zamonaviy qarashlar uyg‘unligi masalasi alohida ta’kidlandi. O‘zbek jamiyatida ota-ona roziligi, ma’naviy poklik va oilaviy an’analarga hurmat muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, yoshlarning shaxsiy tanlovi va o‘zaro kelishuvi ham tobora muhim omilga aylanmoqda .

Xulosa qilib aytishim mumkinki , umr yo‘ldoshi tanlash jarayonini faqat shaxsiy masala sifatida emas , balki ijtimoiy va pedagogik ahamiyatga ega jarayon sifatida baholash zarur . Bugungi kunda yoshlarni nikohga tayyorlash ,oilaviy psixologiya bo‘yicha

15-Aprel, 2026-yil

bilimlarini oshirish umr yo’ldosh tanlash hayotda muhim o’rin tutishini va bu esa o’z o’rnida ma’suliyatli tanlov ekanini ta’kidlab borish joizdir .

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent, 2017.
3. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton, 1968.
4. Sternberg R.J. Triangular Theory of Love. – Psychological Review, 1986.
5. Bowlby J. Attachment and Loss. – London: Penguin Books, 1969
6. Yoshlar psixologiyasi va nikohga tayyorgarlik bo‘yicha ilmiy maqolalar // *Pedagogik ta’lim* jurnali.
7. Nikoh va oilaviy munosabatlar psixologiyasi bo‘yicha ilmiy maqolalar // *Psixologiya* jurnali.